

O'zbekiston – Germaniya: tajriba va rivojlanish istiqbollari



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Germaniya Federativ Respublikasiga rasmiy tashrifi munosabati bilan O'zA muxbiri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti Xalqaro munosabatlar markazi rahbari o'rinbosari Sanjar VALIYEV bilan suhbat uyushtirdi.

- Siyosiy diplomatiya hamisha iqtisodiy hamkorlikka yo'l ochgan. Ayting-chi, xalqaro maydonda mamlakatlarimiz siyosiy qarashlari va nuqtai nazarining qaysi jihatlari o'xshash?

- O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar yuksak darajada rivojlanmoqda. Ikki tomonlama hamkorlik tarixida ham muammoli masala bo'lmagan. Har ikki mamlakat o'zaro munosabatlarda murosa tamoyiliga asoslangan.

Germaniya Federativ Respublikasi 1991 yil 31 dekabrda O'zbekiston mustaqilligini tan olgan. 1992 yil 6 martda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'tgan yillar mobaynida Germaniya bilan o'zaro hamkorlik keng sohalarni qamrab oldi va serqirra xususiyat kasb etdi. Oliy darajadagi siyosiy muloqot olib borildi.

O'zbekiston bilan Germaniya BMT, YEXHT, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar doirasida global va mintaqaviy masalalar bo'yicha hamkorlik qilmoqda. Toshkent va Berlin ko'plab masalalar, xususan, terrorism, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha yakdil qarashlarga ega, bu xalqaro maydonda samarali hamkorlikka yo'l ochmoqda. Buni quyidagi omillar tahlilida ham ko'rish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston va Germaniya diplomatiyasiga xos bo'lgan asosiy jihatlar mushtarak. Ma'lumki, Germaniya tashqi siyosati izchillik va ishonchlilik tamoyillariga asoslanadi. Sheriklikdagi hamkorlik, manfaatlar muvozanatiga rioya etish ushbu davlat diplomatiyasiga xos xususiyatdir. O'zbekiston tashqi siyosati ham izchilligi, mas'uliyatli yondashuvga ega ekani bilan ajralib turadi. Bu ikki va ko'p tomonlama munosabatlar, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish bo'yicha dolzarb masalalarni hal etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bo'linmaslik va xavfsizlik tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda xalqaro barqarorlikni ta'minlashda ishtirok etish. O'zbekiston – Germaniya siyosati xavfsizlik tushunchasiga asoslanadi va kompleks yondashuvga yo'naltirilgan. Shu bois O'zbekiston Germaniyaning BMT doirasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo'yicha faoliyatini e'tirof etadi, Berlining tub islohot o'tkazish orqali uni mustahkamlash taklifini qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi kunda Germaniya BMT donorlari ichida kattaligi hamda tinchlikparvar askarlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda qayd etiladi.

Uchinchidan, Germaniya inson huquqlarini o'z siyosatining ustuvor jihati va tub manfaati deb hisoblab, ularga rioya etish bo'yicha qat'iy choralar ko'rib keladi. Shu bois O'zbekistonning huquqiy davlat barpo etish va qonun ustuvorligini ta'minlashga oid sa'y-harakatlari Toshkentni Berlining mintaqadagi muhim sherigiga aylantirmoqda. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar esa Germaniya bilan ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga sifat jihatdan yangi sur'at bag'ishlamogda.

Shu bois, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Berlinga rasmiy tashrifi o'zaro hamkorlik bo'yicha to'plangan ijobiy tajribani yanada boyitishga xizmat qiladi.

- Germaniyaning yuksak samarali iqtisodiyoti yangi yo'nalishlardagi savdo-sotiqni rivojlantirishga bo'lgan talabni oshirmoqda. Ana shunday bir paytda Germaniya va u orqali Yevropa bozoriga qanday tovarlar taklif etish mumkin?

- Germaniya taraqqiy etgan industrial-texnologik mamlakat bo'lib, iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Mamlakat tovar eksport qilish bo'yicha

dunyoda to'rtinchi, xomashyo import qilish bo'yicha beshinchi o'rinda turadi. 2018 yilda YAIM umumiy hajmi bo'yicha mamlakatlar reytingida Germaniya qariyb 3,3 trillion yevro ko'rsatkich bilan uchinchi o'rinni, xarid qobiliyati bo'yicha YAIM hajmiga qaraganda reytingda beshinchi o'rinni egalladi. Avtomobil, kimyo, elektrotexnika, aviakosmik, qurilish va oziq-ovqat sanoati Germaniya iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlovchi yetakchi tarmoqlar hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, ichki iste'molning oshishi so'nggi yillarda Germaniya iqtisodiyoti rivojlanishiga turtki bo'lgan asosiy omillardan sanaladi. Germaniya aholisining xarajatlari yiliga o'rtacha 2 foizga oshmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iste'mol narxlari ijobiy tomonga o'zgarishini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, Germaniya bozoriga kirish oson emas. Germaniyada Yevropa Ittifoqining tartibga soluvchi qoidalari amal qiladi va ma'lum mezonlarga bo'ysunadi.

Transport va logistika masalasi ham alohida yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda Markaziy Osiyo bilan Yevropa o'rtasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish katta xarajat talab etadi. Shu bois, AQSH, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Italiya, Polsha, Avstriya, Shveysariya, Belgiya kabi mamlakatlar Germaniyaning asosiy tashqi savdo sheriklari hisoblanadi. Germaniyaga qariyb 1,05 trillion yevro miqdorida import qilinadigan tovarlar umumiy hajmidan 700 milliard yevrodan ortig'i Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan import qilingan tovarlardir.

Ushbu sharoitda O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarini kamtarona ko'rinishga ega deyish mumkin - 2018 yil yanvar-oktyabr oylari holatiga ko'ra, o'zaro savdo hajmi 542 million yevroni tashkil etgan. Biroq o'zaro tovar aylanmasi hajmi yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Mamlakatimiz Germaniya bilan o'zaro savdo aloqalari yo'lga qo'ygan sobiq ittifoq davlatlari orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, tovar aylanmasi hajmi 2017 yil bilan taqqoslaganda taxminan 16-20 foizga ko'paygan. Ayni paytda Germaniya eksporti va O'zbekiston importi hajmi ham o'sgan.

Ekspertlar O'zbekiston - Germaniyaning savdo-iqtisodiy munosabatlarini yanada kengaytirish bo'yicha yuksak salohiyat mavjud ekanini bildirmoqda. 14 yanvar kuni Berlinda bo'lib o'tgan O'zbekiston - Germaniya biznes forumi chog'ida erishilgan qator kelishuvlar buni tasdiqlaydi.

Bu kelishuvlar ikki tomonlama tovar aylanmasi hajmini oshirish hamda uning muvozanatini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı ishlarga yo'l ochib beradi. Taqdim etilgan imkoniyatlar O'zbekiston korxonalari uchun Germaniyaga to'qimachilik buyumlari, elektrotexnika va kimyo mahsulotlari, sarxil va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

O'tgan yilning kuzida "O'zbekiston - Yevropa ittifoqi" Hamkorlik kengashining navbatdagi majlisida bir tomonlama tarif imtiyozlarini qo'lga kiritish bo'yicha hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Bu kelgusida 6 ming 200 turdan ortiq mamlakatimiz tovarlarini Yevropa bozoriga bojxona to'lovlarisiz olib kirish imkonini berishi mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston mahsulotlarini Markaziy, Sharqiy va Janubiy Osiyo davlatlari bozorlariga taklif etish uchun mamlakatimizga Germaniya investitsiyalari va texnologiyalarini jalb etishda ulkan salohiyat mavjud. Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo'mitasi aholi soni bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egallagan O'zbekiston salohiyatiga yuksak baho beradi. Mamlakat rivojlangan sanoat, yuqori malakali ishchi kuchi, boy xomashyo bazasi va energiya resurlariga ega. Erkin iqtisodiy zonalarda imtiyozli soliq va bojxona tartiblari amal qiladi. Biroq sarmoyadorlar nuqtai nazaridan qaraganda, YAIMning yuksak o'sish sur'ati - yiliga 5 foizdan ortiqligi O'zbekistonning eng katta afzalligi hisoblanadi. Bu katta daromad olish imkonini beradi.

Ana shunday hamkorlik Afg'onistonda, ayniqsa, samarali bo'lishi mumkin. Germaniya O'zbekistonning "Mozori Sharif-Hirot" transport yo'laklarini qurishi, "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyalari yotqizilishi kabi tashabbuslarini, Surxondaryo viloyatida Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni

rivojlantirishga yo'naltirilgan biznes-loyihalarni resurslar bilan to'liq ta'minlashga qodir.

Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyotining faol modernizatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Germaniya tadbirkorlari tomonidan xizmat ko'rsatish to'plamlari taklif etilishi mumkin. Germaniyada boshqaruv bo'yicha o'qitish va ilg'or tajribani o'zlashtirishni tashkil qilish yuqori natijalar beradi.

- Germaniya qishloq xo'jaligini mexanizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Aholining 2-3 foizi mazkur sohada mehnat qilmoqda va yuksak natijalarga erishilmoqda. Ushbu sohadagi hamkorlikni bugun qaysi yo'nalishlarda rivojlantirish mumkin?

- Germaniya sanoatda ulkan salohiyatga ega ekani bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar orasida ham yetakchilardan hisoblanadi. Ushbu davlat qishloq xo'jaligi - bu yuqori samarali agrosanoat majmuasidir. Eng yangi agrosanoat texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash tufayli yuksak ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

Germaniyada yetishtiriladigan bug'doy mamlakat ehtiyojining 80 foizini, shakar 85 foiz, go'sht 60 foiz, sut 100 foizini qondiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining to'rt dan uch qismi chorvachilik orqali keladi.

Shu bilan birga, Germaniya qishloq xo'jaligining o'ziga xos iqlimi O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarining oziq-ovqat bozoriga kirishi uchun sharoit yaratadi. Hozirgi kunda hal etilayotgan "Sharq-G'arb" va "Shimol-Janub" liniyalari bo'yicha yuk tashish imkoniyatlari O'zbekiston va Yevropa transport-logistika zanjirini yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizdagi ekologik toza mahsulotlarni 82 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan Germaniya bozorlariga yetkazib berish istiqbollari bor.

Dastlab O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchi va logistika bo'yicha yirik kompaniyalar Tashqi savdo vazirligi bilan hamkorlikda Germaniyadagi xalqaro ko'rgazmalar, masalan, "Frut logistika" singari yarmarkalarda ishtirok etish orqali tanilishi zarur. O'zbekiston eksport salohiyatini tanishtirish uchun "Import Promoushen Desk" loyihasiga kirish maqsadga muvofiqdir.

Quvonarli jihati shundaki, o'tgan yili qishloq xo'jaligi bo'yicha O'zbekiston - Germaniya hukumatlararo ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Bu kabi mexanizmlar hamkorlik sohalari bo'yicha munosabatlar jadallashuvidan dalolat beradi.

Mazkur guruh tomonidan qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik dasturining ishlab chiqilishi qo'shma agroklastlar tashkil etishdan tortib, ekin ekish, yig'ish, saqlash va yetkazib berishning innovatsion usullarini joriy etishgacha bo'lgan keng turdagi masalalarni qamrab olishi mumkin.

Davlatimiz rahbarining Germaniyaga tashrifi doirasida ana shu masalalar bo'yicha erishiladigan kelishuvlar tegishli aloqalarni ikki mamlakat mintaqasi darajasida ham faollashtiradi. Qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona vodiysi, Samarqand va boshqa viloyatlar bilan hamkorlik qilishga qiziqish ortadi.

- Mamlakatimizda Germaniya fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz tartib joriy etildi. Bu kelgusida qanday samara beradi, deb o'ylaysiz?

- Germaniya aholisi hordiq chiqarish va dam olish uchun eng ko'p mablag' sarflaydigan mamlakatlar ro'yxatida yetakchi o'rinni egallaydi. 2018 yilda Germaniya fuqarolari 38 milliard yevro mablag' sarflagan holda, xorijiy davlatlarga 80 million marta safar uyushtirgan.

Mamlakatimizda xorijiy sayyohlar uchun qulay tartib joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida Germaniyadan kelayotgan turistlar soni ham ortib bormoqda. 2016 yilda germaniyalik mehmonlar soni 4 ming 889 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilda O'zbekistonga 18 mingdan ziyod germaniyalik tashrif buyurdi.

Germaniya fuqarolarining aksariyati xorijga boshqa mamlakat madaniyati, an'analari va turmush tarzi bilan

tanishish maqsadida sayohat qiladi. Shu bois Germaniya sayyohlik bozorida milliy turistik mahsulotni keng namoyish etishni izchillik bilan davom ettirish kerak. Bu maqsadlar uchun televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, bosma ommaviy axborot vositalarida festivallar, reklama aksiyalarini targ'ib qilish foydali.

Turizm sanoatida Germaniyadan o'rganish mumkin bo'lgan jihatlar talaygina. Mamlakat qiziqarli madaniyat va shovqinli shaharlardan tortib, o'ziga xos ekologik va dengiz zonalarigacha bo'lgan keng turdagi sayyohlik xizmatlarini taklif etadi. Biznes turizmi bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha Germaniya tajribasini joriy etish turizm sohasidagi hamkorlikda istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Bunda sayohatchilar parvozlar va yashash joylarini xalqaro bronlash platformalari orqali tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Boshqa tomondan "ko'p ma'lumotlar" tahlili trendlarga tezroq javob bera olish va geografik jihatdan uzoqlikka qaramasdan, mijozlarga yaqin bo'lish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, Germaniya bilan hamkorlik uchun bizda ko'plab istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Bu yerda gap "Germaniya sifati", ya'ni uzoq muddatli, barqaror va manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish haqida bormoqda. Bu borada Prezidentimizning Germaniyaga tashrifi siyosiy aktivlar va tomonlarning ezgu intilishlarini savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalar bo'yicha real yutuqlarga sarmoya kiritish imkonini beradi.

O'zA